

PSIXIATRIYA SOHASIDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR

Yo'ldosheva Mohinur Umedovna

Buxoro Innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

Klinik va klinik oldi fanlar kafedrası assistenti

yoldoshevamohinur61@gmail.com

Rasulova Nazokat Shavqiddinovna

Buxoro Innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

Klinik va klinik oldi fanlar kafedrası assistenti

nazokatrasulova442@gmail.com

Annotatsiya So'nggi yillarda psixiatriya sohasida zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ruhiy salomatlikni saqlash va davolash uslublarida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Bu texnologiyalar bemorlarga individual yondashuv, erta diagnostika, samarali davolash va kasallikning qaytalanishini oldini olish imkoniyatini yaratmoqda.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, Telepsixiatriya, Genomika, Farmakogenetika, EEG, Biosensor

Asosiy qism:

1. Sun'iy intellekt va Mashinaviy o'rganish:

- Diagnostik jarayonni avtomatlashtirish.
- Bemorlarda relaps xavfini bashorat qilish.

Sun'iy intellekt klinik ma'lumotlarini(nutq,yuz ifodasi,harakatlar,kayfiyatdagi o'zgarishlar)tahlil qilib,depressiya,bipolyar buzilishlar,shizofreniya kabi kasalliklarni erta aniqlashga yordam beradi.Bundan tashqari.NLP yordamida bemorning yozgan so'zlari orqali ularning ruhiy holatini baholash mumkin.Bu metod yordamida oldin olgan muolajalari haqida,davplanish tarixini yoritib beradi.

2. Mobil ilovalar va Telepsixiatriya:

- Masofaviy maslahatlar va psixoterapiya.
- Stress, xavotir va depressiyani kuzatuvchi ilovalar.

- Buning afzalligi davolanish muassasalaridan uzoq bo'lgan va jismoniy imkoniyati chegaralangan bemorlar uchun qulay imkoniyat beradi. Doimiy va tezkor psixologik yordam tufayli uzluksiz davolash imkoniyati paydo bo'ladi

3. Genomika va farmakogenetika:

- Shaxsiylashtirilgan davo usullari.

- Dori vositalarining individual samaradorligini aniqlash

Ruhiy kasalliklar ko'pincha genetik bo'lganligi sababli, ayniqsa, shizofreniya, bipolyar buzilishlar, depressiya kabilar irsiy omillarga bog'liq. Genetik testlar yordamida kasallikni erta tashxislash ham muhim ahamiyatga ega.

4. Miya tasvirlash texnologiyalari (fMRI, EEG):

- Miya faoliyatining vizual tahlili.

- Kasallikni aniqroq tushunish imkoniyati.

5. Virtual haqiqat va biosensorlar:

- Fobiya va PTSD uchun terapiya vositasi.

- Uyqu, yurak urishi va harakatlarni kuzatuvchi qurilmalar orqali psixik holatni baholash.

Biosenssrlarning bemorning stress darajasini, yurak urish tezligi, nafas olish ritmi, teri o'tkazuvchanligi kabi ko'rsatkichlarni kuzatib boradi. Masalan, aqlli soatlar (Apple watch, Fibit) yurak urish o'zgaruvchanligini o'lchab, stress yoki xavotir darajasini baholashga yordam beradi. Hattoki ba'zi biosensorlar uyqu sifati, harakatlar faolligi, jismoniy faollikni kuzatib, depressiya yoki xavotir buzilishlarini erta aniqlashga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa:

Psixiatriyada zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi nafaqat tashxis va davolash sifati yaxshilanishiga, balki bemorning hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu texnologiyalar yanada rivojlanib, psixiatriya amaliyotida muhim o'rin egallashi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Sadock,B.J.,Sadock,V.A.,Ruiz P.(2017) Kaplan and Sadock's Synopsis of psychiatry:Behavioral Sciences/Clinical Psychiatry.11 th Edition.Wolters Kluwer
- 2.Torous,J.,Vaidyam,A(2019)"Digital psychiatry:Improving access to mental health care through technology".Harvard Review of Psychiatry,27(3),156-165
- 3.Insel,T.R (2020)."Digital phenotyping:A new approach tu understanding mental health"
- 4.Miller,D.D.,Brown,E.S.(2018) "Artificial intelligence in psychiatry:A new era in mental health diagnosis and treatment" Psychiatric Clinics of North America.
- 5.Jalilov Jahongir Abduroziqovich "Comorbid Pathologic characteristic associated with congenital septal heart abnormalities"/European journal of modern medicine and practice.